

## TA'LIM FAOLIYATI SHAROITIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNING OLDINI OLISH – TA'LIM SAMARALIDORLIGI OMILI

**R. Musurmonov**

Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

**M. Musurmonova**

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim faoliyati sharoitida maktab o'qituvchilari va o'quvchilar o'rtasida sodir bo'ladigan nizolarni oldini olish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, amaliy taklif va tavsiyalar berilgan

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogika, tarbiya.

## TA'LIM FAOLIYATI SHAROITIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNING OLDINI OLISH - TA'LIM SAMARALIDORLIGI OMILI

### ABSTRACT

The article is devoted to improving the effectiveness of teaching by preventing conflicts between teachers and students in the context of educational activities, and also gives practical suggestions and recommendations.

**Keywords:** education, teacher, student, pedagogy, upbringing.

### KIRISH

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy, va ruhiy islohatlar, puxta tayyorgarlik, shaxsiy tayyorgarlik va ayrim shaxsiy sifatlar bo'lish kerak. Pedagogik maqsadga yo'naltirishda qanday munosabatlarga ye'tiborimizni qaratishimiz kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq, asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomolada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi ular bilan ishonch bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomilalik keng fikrlay olish tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi.

Pedagog o'z maqsadiga yerishishi uchun munosabatga o'quvchilar bilan kirishi uchun qo'yidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga

qiziqish, pedagogik ishni sevish, psixologik va pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniy, dilkashlik, talabchanlik, qatilylik va maqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish. Pedagog pedagogik maqsadga yo'naltirilgan munosabat jarayonda o'quvchilarni xarakter xususiyatlariga ham alohida ye'tiborini qarata olishi lozimdir.

Maqsadga yerishishga birgalikda intilish. Ta'lim sohasida biz maqsadga yerishimiz. Uchun albatta birgalikda intilishimiz lozimdir. Ta'limni tashkil yetuvchi hodimlar bu pedagoglardir shunday yekan ta'limni samarali amalga oshishida kimlar bilan birgalikda ishlashimiz o'rinli Ma'lum, pedagogik kasbda maqsadga yerishish uchun o'qtuvchining faqat bilimdon bo'lishi, u yoki bu fanini chuqur bilishining yetarli yemas. O'qituvchi tarbiya hamdir. U bolalarning yosh va ruhiy hususiyatlarini ye'tiboriga olib biror fanni qay darajada, qanday usullar bilan o'rganishni ham, bolalarni qanday tarbiyali metodikasini ham, inson shaxsning shakllanishi qonunniyatlarini ham bilishi zarur.

Pedagog jamoa bilan ishlashni bilish, guruh talablariga munosabati jarayonida bir xil muomola bo'lishi, ota-onalar bilan ishlashi guruh rahbari ish tizimining ajralmas qismidir. Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbaridan ular bilan ishonchli va ishchan munosabati o'rnatish pedagog nazokat, chidam, izchil va qat'iy ye'tiborini talab qiladi. Tarbiyaning umumiy va vazifalari ota-onalar jamoasi orqali muvoffaqiyatli hal qilinadi. Sinf rahbari ota-onalari tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashga majbur qilib ogohlantirsa maqsadga yerishishning qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatdir.

Prezidentimiz I. Karimov takidlagannidek "birorni o'qitadigan tarbiya qiladigan inson avvalo o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i lozim. Zamon talablari shuki, professor va o'qituvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini va qund va savot bilan o'rganib mag'zini chaqib o'ndan keyin talabalarga saboq berishlari zarurligini alohida ta'kidlaydi. O'qituvchining ijobiy munosabatlari qay darajada shakllanganligida ham bog'liqdir. Qobiliyat jarayonida, faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi deb ta'kidlaydi professor M. Ochilov hamda o'qituvchi qobiliyatini qo'yidagi turlarni tavsiya yetadi. Jumladan, bo'lishi qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, muomola qilish qobiliyati kabilar.

Uzluksiz ta'limda dars va ma'ruzalarni mukammal tashkil qilishi o'qituvchining ijobiy munosabatlaridan biridir. Yuqori saviyada o'tilgan mavzular yoshlar ongiga uzoq saqlanadi. Ularning iymon ye'tiqodi va mafkuralarning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rstadi. Shu sababli o'qituvchining ishlash saviyasi o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati, dastlab dars ma'ruzalarida ko'rinadi.

Dars berish sa'natini egallashda o'qituvchi ishontirgan o'quv mashg'uloti guruh bilim berish vositasi bilan birga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, yertangi kunga bo'lgan ishonch, xalqimizning aql zakofati va mehnatining nimalarga qodirligi jamiyatning munosib fuqorosi va quruvchisi bo'lishi uchun nima qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib, xizmat qiladi. Yoshlarimiz dars jarayonida ijobiy munosabatlari o'zlarida shakllantirsinar. O'quvchi yoki talabalar darsdan har jihatdan mamnun bo'lsinar ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan keyin baholari bilan yemas, balki bilim va malakalari hosil qilinganliklarini ma'naviy oziq olganlarning his qilsinar. Ta'limni mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlar qalbini ruhini bir biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasida samimiy xurmatni o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, o'z fanini va uni o'qitish yo'l usullarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi murabbiyga hos madaniyatni yuqoriligi, o'z shogirdlariga xurmat va muhabbat, ular hayotiga qiziqish va ruhiy holatlarini bilish tushunishi, bosiqlik, xis tuyg'ularni boshqara olishlari, tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyatiga ye'tibor berishlari, nutq madaniyatining yuqoriligi jamoat ishlariga faoliyatchi, ayniqsa omma o'rtasida ilmiy ma'rifat va ma'naviy madaniy ishlar tahribotchilari bo'lishlari lozim. Shundagina mamlakatimiz. Kelajagi bo'lgan yoshlarimiz. O'z murabbiylari nomini zo'r yehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Buning uchun har bir o'qituvchi tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarligi va yuqori axloqiy fazilat egasi bo'lishlari darkor.

O'qituvchining salbiy munosabatlari o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimni baholashda qo'yilgan xatolar faqat baholashda qo'yilgan xatolar faqat baholash komponentlarining o'zgarishiga yemas, balki butun o'quv bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. Ular bu tizimga xos bo'lgan kamchiliklarni kuchaytirib, uni kamsuqum yoki yoqimsiz qilib qo'yadi. O'quvchi o'z-o'zini bilan qiyoslangan sinorda ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Bolalar bilishini shunday taqqoslash kerakki, unda birovni yuqori ko'tarib, boshqalarni yerga o'rmay, bolalarning yeng yaxshi natijalarga yerishuvini va o'z shaxsini takomillashtirishini qo'llab-quvvatlasin.

Pedagog ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni oldini olishda har bir o'quvchini harakteriga ye'tiborini qaratish kerak.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogika konfliktlar ziddiyatlarni, to'qnashuv, qarama-qarshilik mojarolarni pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi ziddiyatlarini olidini ola bilishi lozimdir. Zamonaviy tarzda biz konfliktlarni boshqarishimiz ziddiyatlarni munosabatlarini to'g'ri yechimini topishimiz kerak. Zero yurtboshimiz Islom Karimov aytganidek: "Ilm" ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qolmaydi ham. Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga yerishia olamiz. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat ye'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday yekan o'qituvchi, o'quvchi va talabning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. U pedagogik jarayonni barqaror yekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi kerak.

Jamiyatimiz keng qamrovchi bo'lib u yerda turli xil xarakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin. Shaxslararo konfliktlar albatta faoliyat turlarida namayon bo'ladi. Masalan guruh misolida ko'ramiz. Tasavvur qiling bir guruhda iqtidorli talantli shaxslarimiz bor. Ular har bir mazmuni yaxshi o'zlashtirib mustaqil fikrlarini bildiradilar, fikr doiralari keng bo'lganligi sababli u shaxslar o'rtasida to'qnashuv, majoro kelishmovchilik, konfliktlar yuzaga keladi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini to'hriligini isbotlay oladilar bunday holatlarda konfliktni boshqarish o'qituvchi tomonidan bartaraf yetiladi. Har bir sohada shaxslar o'rtasida konfliktlarni ko'rishimiz mumkin. Shaxslar o'z ustidan ishlasa, fikrini isbotlay oladimi, ular konfliktlarni yechimini ham topadilar.

Muloqot pedagogik konfliktlarning yechish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriliadi. Oilada konflikt muloqot ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.

O'zaro munosabatlarga kirishilganda konfliktni yuzaga kelishimosligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning

ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlari, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning yelemintar funksiyasi suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik konfliktlarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, yeshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq yekan noto'g'ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishcha o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga diyarli ye'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi "yaxshi suhbatdan –yaxshi gapirishni biladigan yemas, balki yaxshi gapirishni biladigan yesas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan yedi. Pedagogik muloqot-O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola –munosabatlar katta o'rin egallaydi.

O'qituvchi hayotga yendigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir yetishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom yetadi va o'qituvchi foydasiga hal yetiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o'quvchidan kechirim surashni talab yetadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri hatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'ziga ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon yesa. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Pedagogik oliy ta'lim va pedagogik ilmiy tadqiqotlar sohasida Sharq va Yevropa mamlakatlari bilan aloqa o'rnatish Xorijiy mamalakatlari bilan hamkorlik konsensiyasiga quyidagilar keradi:

- xorijiy mamlakatlardagi pedagogik o'quv va ilmiy tadqiqot markazlari bilan aloqa o'rnatish.

- pedagogik muammolarni tadqiq qilishda hamkorlikni yo'lga qo'yish.
- o'qituvchilar aspirantlar, doktoratlarni ilmiy va pedagogik faoliyatga tayyorlash sohasida hamkorlik qilish.
- pedagogik muammolar bo'yicha halqalararo seminarlar, konferensiyalar o'tkazish.
- pedagogik ta'lim va pedagogika fani sohasida informasiyalar almashshish, maktablar, pedagogika o'quv yurtlarining o'quv rejalari, o'quv dasturlari, darsliklar metodik qo'llanmalarni o'zaro almashishi. Pedagogik konfliktologiya metodikasi o'qituvchi madaniyatini rivojlantiradi. Metodika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal yetishda foydalaniladi.

Ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'lim oluvchilarning qobiliyat va ite'dodlarini har tomonlama ochmi va milliy umumbashariy g'oyalar hamda qadriyatlarni singdirish shaxs jamiyat va atrof munosabatlarini yo'g'unlashtirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa sermazmun an'ana "ustoz-shogird" munosabatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Demokratlashtirish jarayoni ta'lim muassasalarida o'zini-o'zi boshqarish shaklida o'tishini faollashtirishni o'quv yurtlarini va ta'lim tarbiya uslublarini toplashda mumtaqillikni kengaytirishni taqozo qiladi. Bu yo'nalishda jamoatchilik tashkilotlarni ayniqsa, yoshlar va bolalar tarbiyasi bilan bog'liq muassasalarni roli ko'chaytirib borish talab qilinadi. Maktablar, liseylar va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonni tashkil yetishga ilg'or o'quv dasturlari marosimlar, bayram tadbirlarini urf odatlarini pedagoglar yangi munosabatlarni singdirib borishi lozim bo'ladi.

Bolalarga oliy janob munosabat.

Insondagi yeng yaxshi, olijanob fazilatlarni biri samimiylikdir. deyarli kun ora ishlatiladigan bu so'zning ma'nosiga ko'pincha ye'tibor bermaymiz. Aslida arab tilida o'zlashtirilgan samimiyat, samimiy so'zlarini o'zbekchaga o'chirganimizda "boshqalar gapini tinglaydigan hamfikir bo'la oladigan, habardor" degan ma'nolar chiqadi. Odob axloqning yaxshilik deb nomlanuvchi biri bo'lgan samimiylik katta tushancha.

Samimiyat kishilarning o'zaro munosabat va muloqatida yuza chiqadi. Har kuni qanchadan qancha odamlar bir-birlari bilan muloqatda bo'ladilar.

Ochiq ko'ngillilik bilan beg'araz chin yurakdan moomolalikka nima yesin. Oliy janob insonlar kattayu-kichikka barobar, ular kunglini olishga intiladi., haqiqatni yoqlaydi, ma'rifatga intiladi, o'zini xurmat qiladi. Bolalar bilan munosabat jarayonida biz to'g'ri so'zlik, oq ko'ngillilik, bag'rikenglik, bilimlilik,

beg'arazliliklaridan foydalansak biz tarbiya berayotgan yosh avlodda oliy fazilatlar shakllanib boradi. Bolalarga yaxshilik qilish, fazilatini, salomlashni, kattalarga xurmatni, kichiklarga izzitni, mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllatirib borishimiz lozim.

## XULOSA

Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar o'zlaridan yaxshi farzandlar, yaxshi shogirdlar, yaxshi shoirlar, yaxshi nom qoldirishga harakat qilganlar. Yaxshi xulqqa ega bo'lgan kishilargina odamlarga yaxshilik qila oladilar. Bolalarga oliy janob munosabatlarni: vatanni sevmok, diyonat, matonat, savob, shijoat, sabr, vijdon, hayo, iffat, sadoqat, do'stlik, kamtarlik, lafz, mardlik, odamiylik, mehnat sevarlik, rostgapirish, to'g'ri so'zlik kabi fazilatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida ularni ongiga singdirib borishimiz biz pedagog va otanalarini burchimizdir.

Majburlamagan holda o'qish bizga ma'lumki, ta'lim albatta ta'limni muassasalarida olib boriladi. Ta'lim muassasalariga:

- maktabgachcha ta'lim muassasalari
- umumiy o'rta ta'lim maktablari
- kasb-hunar kolleji va akademik liseylar
- oliy o'quv yurtlari
- maktabdan tashqari ta'lim muassasalari.

Majburlanmagan holda o'qitishi o'quvchi ixtiyori bilan o'qituvchi hamkorligida olib boriladi. Majburlanmagan holda o'qitish iqtidorli, talantli o'quvchilar o'z hohlagan fanlarini yanada yaxshi o'zlashtirishi uchun, kasb yo'nalishlariga qarab fanlarni to'garaklarda darsdan keiyngi amaliy mashg'ulotlarda davom yettiradilar.

Hozirgi kunda yoshda ko'proq ta'lim muassasalaridagi dars mashg'ulotlari to'gaganidan so'ng o'zlari qiziqchan mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. Bularga: kompyuter mashg'ulotlari, o'g'il bolalar ko'proq sport to'garaklariga, duradgorlik, qiz bolalar pazandachilik, zardo'stlik, tikuvchilik, mashg'ulotlariga ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

Auditoriya mashg'ulotlarida dars o'qituvchi tomonidan talabalarga mukammal tarzda yetkazib berilsa, o'qituvchi talabalarni o'ziga jalb qilolsa, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish vujudga keladi. Va o'quvchilar fanni ixtiyoriy tarzda o'zlashtiradi.

O'quvchilar o'zlari qiziqqan fanlari yuzasida to'garak mashg'ulotlariga qatnashib, fanni yanada chuqurroq o'rganib o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishiga intiladilar

## REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar № 11
2. Voronin G.L. Konflikty v shkole. Sociologicheskiye issledovaniya №3, 1994 g.
3. Liseskiy K.S. Preduprezhdeniye mejlichnostnykh konfliktov v sisteme otnosheniy starsheklassnikov A/R dissertatsii M., 1994.
4. Рыbakova M.M. Konflikt i vzaimodeystviye v pedagogicheskom prosesse. – M.: Prosveshcheniye, 1991.
5. Podlasyy I.P. Pedagogika. – M.: Vados, 2003. y.
6. Musurmonov R. Musurmonova M. Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xucusida. "Xalq ta'limi" j. T.: 2021. № 26 20-23.
5. Jabborova Onakhon Mannapovna. (2019). Psychological and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10), 9-14.
6. Jabborova Onakhon Mannapovna, Ismoilova Dilafuz Mukhiddinovna. (2020, may). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.
7. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M.. Objectives of the lessons of visual arts in primary school. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862-870.
8. Mardonov Shukurullo Kuldashovich, Khujamkulov Umid Negmatovich, Botirova Shakhlo Isomiddinovna, Shermatova Umida Safaevna. The end to educate young people with the spirit of patriotism in the context of globalization. Journal of Critical Reviews, Malaysia, 2020, Vol.7, Issue 12, pp 166-169.
9. Mardonov Shukurullo Kuldashovich, Quttibekova Guljan Tulepbaevna. Structure and Mechanisms of Action of The Educational Cluster. International journal of Psychosocial Rehabilitation, United Kingdom, 2020, Issue 07, pp. 8104-8111.
10. Jabborova Onakhon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. International journal of psychological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.



11. Mamadaliyev K.R., Jabborova O.M., Umarova Z.A., Abdullaeva B.P. Creation of a New Generation of Teaching Literature - A Requirement of Modernity // SCOPUS *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Special Issue 1, 2020.
12. Жабборова Онахон Маннаповна, Ташпулатова Дилором Мукимовна, Бошланғич синф ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2021, pp 575-582
13. Gulyamova X. Boshlang'ich sinflarda o'qish darsidan umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish. Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 1, 2021, pp 1052-1060
14. Жабборова О.М., Умарова З.А. Тарбия фанини кластер усулида ўқитишда педагогик конфликтларни бартараф этиш. Academic research in educational sciences, Issue 1, 2021, pp 582-587.
15. Жабборова О.М., Чимпулатова Ч.Д. Бошланғич таълимда Тарбия фанининг кластер усулида ўқитилиши. Academic research in educational sciences, Issue 1, 2021, pp 562-566.
16. Жабборова О.М., Ташпулатова Д.М. Ўзбекистон янги мафкурасининг педагогик талқини. Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 3, 2021, pp 584-589.
17. Умарова З.А. Бошланғич таълим дидактикаси. Academic research in educational sciences, Issue 2, 2021, pp 556-562.
18. Ochilov Fariddun Izatulloevich, Methods of teaching natural sciences to primary school pupils on the basis of a competent. Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6) (2020), ISSN 1567-214x. 14520-14539 бетлар.
19. Ochilov Fariddun Izatulloevich, "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish jarayonini modellashtirish. The Journal of Academic Research in Educational Sciences, 1(4), (2020). ISSN 2181-1385. VOLUME 1, ISSUE 4. December 2020. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804. Academic Research, Uzbekistan 2020. 624-629 бетлар.